



Boltayeva Manzura Boyturayevna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYAT
MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN
YANADA KENGROQ FOYDALANISH**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan yanada kengroq foydalanish, bolalar ijodiy faoliyatiga yangi texnologiyalarni olib kirish va bu texnologiyalarni amalga oshirishda yangicha g'oyalar yaratish, bolalar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan mashg'ulotlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida zamon talablari darajasida innovatsion texnologiyalar o'rmini kengaytirish hamda bolalarni maktab ta'limiga davlat talablari darajasida tayyorlash maqsadida bolalarni ijodiy barkamollikka yetaklovchi texnologiyalarni amalda qo'llash masalalari haqida so'z boradi.

ANNOTATION: In this article, the wider use of innovative technologies in the organization of visual activity classes in preschool educational organizations, the introduction of new technologies into children's creative activities and the creation of new ideas in the implementation of these technologies, based on the capabilities of children, are carried out in preschool educational organizations. In order to organize training more effectively, it will be discussed about expanding the place of innovative technologies at the level of modern requirements, and about the practical application of technologies that lead children to creative excellence in order to prepare children for school education at the level of state requirements.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается более широкое использование инновационных технологий при организации занятий изобразительной деятельностью в дошкольных образовательных организациях, внедрение новых технологий в творческую деятельность детей и создание новых идей при реализации этих технологий, исходя из возможностей детей., проводятся в дошкольных образовательных организациях. В целях более эффективной организации обучения речь пойдет о расширении места инновационных технологий на уровне современных требований, а также о практическом применении технологий, ведущих детей к творческому совершенству. подготовить детей к школьному обучению на уровне государственных требований.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, yangi g'oyalar, tasviriy faoliyat , takomillashuv, harakat, ijodiy faoliyat , innovatsion texnologiyalar,bolalar ijodkorligi,yangi jahon tajribalari,hamkorlik , hamjihatlik masalalari

KIRISH

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni intellektual, ta'limiy , axloqiy, estetik va jismonan har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar bilan uyg'un shaklda tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim tizimida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini yanada yangi g'oyalar bilan boyitish va bu g'oyalarni keng targ'ib etishni talab qiladi.

Bunda bolalarda ijodiy fikrlash, yangiliklar yaratish, yangi g'oyalarni kashf etilishiga hamda vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, tabiatga nisbatan mehr va ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirishga qaratilishi lozim.



Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari - bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishga , maqsadlarga erishish uchun tinmay mehnat qilishga va iroda, sabr-toqat e'tiborli bo'lisl kabi xususiyatlarni rivojlantiruvchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bilan shug'llananish - bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashish o'rnini va qanday maqsadlarda foydalanish ko'nikmalarini bilish , ularni ajrata olish - bu estetik sezgining rivojlanishiga zamin bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, ritmi, yaratish texnologiyalarini ,proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir . Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirishda asosan tasviriy faoliyatni ta'lim-tarbiyaviy ishlarning eng muhim talablaridan biri sifatida e'tibor qaratish hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va bolalarning ijodiy fikrlash imkoniyatlarining rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, tarbiyaviy, shaxsiy, hissiy, axloqiy ,nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirishda bolalar imkoniyatlaridan kelib chiqib , ularning faoliyat bilan shug'llananishlarida qiyinchiliklarsiz amalga oshirilishini ta'minlash lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni ma'lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir.

Tasviriy faoliyatning har bir turi o'ziga xos vazifalarni hal etadi, ularni bir yo'nalish,bir maqsad bo'yicha birlashtiradi, ammo bu maqsadlar g'oyalar asosida kengayib, mukammallahib, yangilanib borishi kerak. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, eng avvalo har bir turdag'i mashg'ulotlar soniga qat'iy rioya qilishi hamda bolalar uchun qiziqarli va bolani o'zi xohlab bajarishga undovchi mashg'ulot shakllaridan foydalanishi kerak. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqoridaqilardan tashqari, mashg'ulot qanday materiallar bilan o'tkazilsa, qanday tashkil etilsa,(yakka tartibda, yoki guruh bo'lib ishlash) maqsadga muvofiq bo'lislini ham tarbiyachi nazarda tutmog'i lozim.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari - bu rasm chizish, loy, aplikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha guruqlarida yosh doirasida aniq bir vaqtda, kun tartibi asosida rejalashtiriladi. Hamma faoliyatlar uch qismga bo'linadi:

- mashg'ulotning boshlanishi-topshiriqni tushuntirish;
- mashg'ulotning borishi-topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi;
- mashg'ulotning yakuni-bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatning turlari bilan shug'llananish san'at markazlarida rejalashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini xilma-xil shaklda , mavzularini qiziqarli , bola uchun yangilik bo'lar darajada rejalashtirish lozim, chunki bola o'zi bilgan narsalar haqida unchalik qiziqish bildirmaydi. Bolalar uchun o'zlari bilmagan , tanimagan narsalar qiziq tuyiladi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda iordaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi va bu faoliyat orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi.

TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARIDA YANGICHA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA ULARNING TAHLILI



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rasm chizishga o'rgatish bolalarning 3 yoshidan boshlanadi. Bu davr- bolalarni tasviriy faoliyatga tayyorlash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushslash va qog'oz ustida yuritishga o'rganishadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan yangi bola hali qalamni to'g'ri ushslashni bilmaydi, tarbiyachi bolalarni asta sekin qalamni to'g'ri ushslashga odatlantiradi, bu jarayonda bolani bajarayotgan ishi emas, balki qalamning harakati, bolaning qalamni to'g'ri ushlay olish ko'nikmasining shakllanayotgani , qalam bilan qog'oz ustida iz qoldirishi qiziqtirish kerak . Qalam bilan to'g'ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qog'oz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqlar asta sekin murakkablashadi.Mana bu tasviriy faoliyatning texnologiyasining rivojlanish davri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bolalar tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ular uchun yangi bo'lgan predmetlar bilan tanishish ularda ulkan qiziqishni uyg'otadi. Bu faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlanadir. Shunday qilib, tasviriy faoliyatlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakllari, yasalish texnologiyalari ranglar uyg'unligi, kata-kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, xususiyatlarini ,o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyaning rivojlanishiga ularda ko'rgazmali, obrazli, ijodiy fikr yuritishga imkon beradi.

Buyuk mutafakkir bobomiz al-Xorazmiy "Agar har bir o'qituvchi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yuksak samaralarga erishardi, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish ham o'quvchi uchun juda oson va yengil bo'lardi" deb ta'kidlagan edi. Yuqorida fikrlarni inobatga olib bugungi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga badiiy bilim va malaka berishga katta e'tibor berilmoqda. Buning zamirida esa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va jahon tajribalaridan olingan andozalar shakllaridan foydalanib , o'z mintalitetimizga uyg'unlashtirilgan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini yangi texnologiyalari keng tadbiq etilishi lozim.

MUHOKAMA

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar bilan o'zarbo'liqligini tushuna boradi.

Tasviriy faoliyat — bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning bir qismi sifatida ta'lim jarayonida muhim o'rinni egallaydi. Shu bilan birga tasviriy faoliyat mashg'ulotlari u xilm-xil faoliyat va mashg'ulotlar turlari bilan bog'liq bo'lishi muhimdir . Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarning shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik his-tuyg'u, badiiy did, shu bilan birga, axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko'nikmasi, bosqlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bolalar bilan tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'tkaziladigan suhbat ularda rasrn chizishga, loydan buyum yasashga qiziqishlarini uyg'otishi zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda , rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya bular faoliyat turlari, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi.. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Bola birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta xotirasiga suyanadi, chunki yangi predmet bilan oldindan tanishadi yoki



kuzatib chiqadi, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarining joylashishi, rangni bilib oladi. Bu jarayonda xotirada saqlash, idrok etish, fikrlash , ko‘rish, sezish, qo‘l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi.

Bolalar predmet va hodisalarni kuzatishadi va ko‘rib chiqishadi. Predmet bilan tanishish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlarga bo‘lib, uning shaklini o‘zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog‘oz, bo‘r, bo‘yoqlar) bilan ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishslash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o‘sishiga ,yangi bilimlarni o’zlashtirishiga sabab bo‘ladi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari - boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo‘yib, o‘shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o‘rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishslash kabi sifatlar tarbiyalanadi.

Foydalanimanadabiyotlar:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil (Maktabgacha ta'lif vazirligi)
2. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. "Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" Science and Education" Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1
3. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.: Tafakkur bo'stoni, 2013
4. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.:2010y.
- 5.T.N.Toshtemirona "Maktabgacha ta'lif-tarbiyani tashkil etish" Kamolot nashriyoti. Buxoro 2022-yil. UO‘K: 372.8 BBK: 74.2.1
5. "Pedagogika tarixi". Qo'llanma. T., "O'qituvchi" 1996 yil